XALQ DEPUTATLARI JONDOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-19-118-2-35-K/25 Jondor tumani

Jondor tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi OʻRQ-1105-sonli Qonuni va Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2026-yil 30-dekabrdagi “Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-21-112-2-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Jondor tumani iqtisodiyot va moliya boʻlimining 2025-yil 19-noyabrdagi 01-06-246/20-01-60-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Jondor tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi OʻRQ-1105-sonli Qonuni va Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashining 2026-yil 30-dekabrdagi “Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-21-112-2-0-K/25-sonli qarori (keyingi oʻrinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Jondor tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **143,6 mlrd.soʻm** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **143,6 mlrd.soʻmga** tasdiqlanganligi, shuningdek, Jondor tumani mahalliy budjetining shaxsiy gʻazna hisobvaragʻida turgan budjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori **1,2 mlrd.soʻm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Jondor tumani budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda Jondor tumani budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Jondor tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meʼyorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Jondor tumani budjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 2026-yil uchun **1,9 mlrd.soʻm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamgʻarmasi mablagʻlarini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilishi taʼminlansin.

5. Jondor tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari v.v.b. (A.Yo'ldoshov), tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻining birinchi oʻrinbosari (B.Toirov), тuman soliq inspeksiyasi boshligʻi (L.Isayev)lar bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

6. Hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablagʻlarining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishi;

oʻzlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining toʻgʻri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning toʻliq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablagʻlarning toʻgʻri taqsimlanishi;

oʻz tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini taʼminlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda maʼlumotlarni joylashtirib borilishini taʼminlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Jondor tumani Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi (Q.Safarov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari (U.Fayzulloyev)lar zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **XUDOYEV JAMSHID RAJABOVICH**

Xalq deputatlari Jondor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-118-2-35-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Jondor tumani budjeti daromadlarining
2026-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	0,0	4 517 040,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	12 348 000,0	12 348 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	8 779 821,0	40 525 310,0
4	Qo'shilgan qiymat solig'i	0,0	4 719 440,0
5	Aksiz solig'i, jami	0,0	12 821 760,0
	shu jumladan:		
	- alkogol mahsulotlaridan soliq	*0,0*	*0,0*
	- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*0,0*	*12 821 760,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 058 000,0	3 962 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	14 506 000,0	14 506 000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig'i	2 081 000,0	12 869 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	26 661 735,0	26 661 735,0
10	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0,0	60 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	746 000,0	6 179 400,0
12	Davlat boji	0,0	1 541 200,0
13	Jarimalar	0,0	1 704 000,0
14	Ijara to'lovi	126 000,0	126 000,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0	0,0
16	Yig'imlar	0,0	1 057 600,0
17	Xususiylashtirish	0,0	0,0
18	Boshqalar	0,0	0,0
JAMI		**66 306 556,0**	**143 598 485,0**

Xalq deputatlari Jondor tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-118-2-35-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Jondor tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**143 598 485,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	35 906 230,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 028 200,0
2	Madaniyat bo‘limi	4 406 904,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	6 171 544,0
4	Sport bo‘limi	19 270 314,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 838 519,0
6	Qishloq xo‘jaligi soha tashkilotlari	5 154 964,0
7	Suv yetkazib berish xizmati DM	2 557 126,0
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 786 991,0
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	127 502,0
10	Hokimiyat	42 006 420,0
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*23 348 979,0*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 584 000,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 980 049,0*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	979 907,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*60 423,0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*919 484,0*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	22 392 064,0
13	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Jondor tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-118-2-35-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma meyorlari

foiz hisobida

№	Mahalliy budjet nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Jondor tumani	0%	11%	20%	9%	0%	57%	100%	43%	100%	100%	0%	0%	0%	59%	100%	41%	0%	0%	30%	30%	0%	0%	30%	30%

davomi

№	Mahalliy budjet nomi	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Jondor tumani	0%	64%	100%	36%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%

davomi

№	Mahalliy budjet nomi	Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Jondor tumani	100%	100%	100%	100%	100%	20%	80%	20%	80%	20%	80%